



jild. 3 No 1 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS  
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT  
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



**journals@timeedu.uz**



**+998 95 651 90 00**



☎ +998 95 651 90 00

✉ [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 [tmijournals.ndc-agency.uz](http://tmijournals.ndc-agency.uz)

✈ TMII\_ilmiy\_bolim

## Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

**Narbayev Sharafatdin Kengeshovich**

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

**Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li**

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrası ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
15. Yakubov Sadirjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, fffd.

## MUNDARIJA

|                                                               |                                                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Чертовичкий А.С.,<br/>Нарбаев Ш.К.</b>                     | Роль агроландшафтов в организации рационального использования земель в условиях перехода к "зеленой экономике"                    | 4   |
| <b>Xotamov I.S.</b>                                           | Biznesning raqobatbardoshligini ta'minlash xususiyatlari                                                                          | 15  |
| <b>D.T.Muhamediyeva,<br/>Yu.Sh.Yuldoshev,<br/>F.A.Tagayev</b> | Kvant kompyuterlari davrida post-kvant kriptografik algoritmlarini baholash                                                       | 26  |
| <b>Omonturdiyev O. E.,<br/>Abduraxmanova<br/>Z.T.</b>         | Oziq-ovqat bozori rivojlanishini prognozlash mexanizmini o'rganish metodikasi                                                     | 36  |
| <b>Mamasoatov D.R.</b>                                        | Raqamli texnologiyalardan foydalanishning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti                                        | 51  |
| <b>Содиков М.А.</b>                                           | Особенности стратегии дифференциации товаров и услуг                                                                              | 58  |
| <b>Mansurov A.A.</b>                                          | Methodological deficiencies and the integration of green accounting in uzbekistan's environmental audits: an operational analysis | 63  |
| <b>Matchanova M.I.,<br/>Matchanov T.M.</b>                    | Plastmassa ishlab chiqarishda innovatsion salohiyat mazmuni va uning ishlash mexanizmi                                            | 77  |
| <b>Nasrullayev N.B.,<br/>Toshpo'latov Sh.O.</b>               | Veb-ilovalarda xavfsizlik sarlavhalarining noto'g'ri konfiguratsiyasi: aniqlash va tahlil                                         | 86  |
| <b>Toshboyev M.M.</b>                                         | Mintaqa eksport salohiyatini shakllanishi va rivojlanishi omillari                                                                | 97  |
| <b>Nurxonov N.Q.</b>                                          | Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi ko'rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozashtirish                | 107 |
| <b>Вахобов А.Р.</b>                                           | Суғурта аудитини такомиллаштириш масалалари                                                                                       | 115 |
| <b>Qudratxo'jayev A.,<br/>Tohirova M.D.</b>                   | Hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil" texnologiyalardan foydalanish                                        | 122 |
| <b>Asamxodjayeva<br/>Sh.Sh.,<br/>Maxamadjonov D.P.</b>        | Sun'iy intellekt texnologiyalarining mashinasozlik sanoatiga ta'siri                                                              | 132 |
| <b>Абдураимова Н.Р.</b>                                       | Влияние демографического роста на рынок труда в Узбекистане                                                                       | 142 |

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI

**Mamasoatov Dilshod Ravshanovich**

*Toshkent menejment va iqtisodiyot  
instituti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining investitsion jozibadorlikka ta'sirini baholash uchun kompleks uslubiyot ishlab chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda investitsion jozibadorlik ko'pincha moliyaviy ko'rsatkichlar bilan baholanadi, biroq korxonaning raqamli yetukligi, biznes-funksiyalar bo'yicha texnologiyalar qamrovi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, kiberxavfsizlik, institutsional muhit va raqamli hukumat xizmatlaridan foydalanish darajasi kabi omillar yetarli darajada integratsiyalashmagan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, investitsion jozibadorlik, raqamli yetuklik, integral indeks, texnologiya qabul qilinishi, korxona samaradorligi, investor qarori.

**Annotation.** This article develops a comprehensive methodology for assessing the impact of the level of digital technology use on the investment attractiveness of enterprises. The relevance of the study lies in the fact that, in practice, investment attractiveness is often evaluated mainly through financial indicators; however, such factors as the enterprise's digital maturity, the coverage of technologies across business functions, data-driven management, cybersecurity, the institutional environment, and the level of use of digital government services are not sufficiently integrated.

**Keywords:** digital technologies, investment attractiveness, digital maturity, integral index, technology adoption, enterprise efficiency, investor decision.

**Аннотация.** В данной статье разрабатывается комплексная методика оценки влияния уровня использования цифровых технологий на инвестиционную привлекательность предприятий. Актуальность исследования заключается в том, что на практике инвестиционная привлекательность зачастую оценивается преимущественно по финансовым показателям, однако такие факторы, как цифровая зрелость предприятия, охват технологий по бизнес-функциям, управление на основе данных, кибербезопасность, институциональная среда и уровень использования услуг цифрового государства, интегрированы недостаточно.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, инвестиционная привлекательность, цифровая зрелость, интегральный индекс, принятие технологий, эффективность предприятия, решение инвестора.

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiyotda investitsion jozibadorlik endi faqat korxonaning moliyaviy natijalari, aktivlar rentabelligi yoki bozor ulushi

bilan emas, balki uning raqamli transformatsiyaga tayyorgarligi bilan ham belgilanmoqda. Jahon bankining Digital Adoption Index ko'rsatkichiga



ko'ra, raqamli qabul qilish darajasi biznes, hukumat va aholi bo'yicha uchta o'lchamda baholanadi hamda u iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va samaradorlikni oshirish bilan bog'liq omil sifatida talqin qilinadi. Bu esa investitsion jozibadorlikni baholashda raqamli omillarni alohida emas, balki tizimli ko'rsatkich sifatida kiritish zarurligini anglatadi.

Texnologiyalarni joriy etishning investitsiya uchun ahamiyati uch yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlarini pasaytiradi, tranzaksiya xarajatlarini qisqartiradi va ma'lumotlar oqimini tezlashtiradi. Ikkinchidan, ular korxona samaradorligi va bozor kengayishini ta'minlaydi. Uchinchidan, ular investor uchun shaffoflik, kuzatuvchanlik va riskni boshqarish imkoniyatini kuchaytiradi. Jahon bankining 82 ta rivojlanayotgan mamlakat ishlab chiqarish korxonalari bo'yicha tadqiqotida email va veb-sayt kabi oddiy raqamli biznes yechimlari ham unumdorlikka ijobiy ustama berishi, mehnat va kapital talabini oshirishi ko'rsatilgan[1].

Biroq mavjud yondashuvlarning muhim cheklovi shundaki, ko'p hollarda raqamli texnologiyalar "bor" yoki "yo'q" tamoyili asosida baholanadi. Jahon bankining FAT va TAS yondashuvlari esa bu kamchilikni bartaraf etib, texnologiyani korxona darajasida emas, balki biznes-funksiyalar darajasida baholash lozimligini ko'rsatadi. Ya'ni texnologiya qamrovi, undan foydalanish

intensivligi, qaysi vazifalarda qo'llanilishi va qaysi variant eng ko'p ishlatilishi investitsion jozibadorlik uchun oddiy mavjudlikdan ko'ra ko'proq axborot beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Feliciano-Cestero va hammualliflari raqamli transformatsiyaning firmalarning xalqaro faoliyatiga ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilib, bunda liderlik, bilimlar bazasi, raqamli infratuzilma, inson kapitali va texnologik moslashuvchanlik hal qiluvchi omillar ekanini ta'kidlaydi. Ularning xulosalariga ko'ra, raqamli transformatsiya investitsion qarorlar uchun ijobiy signal bo'lishi mumkin, biroq uning samarasi korxona ichki boshqaruvi va tashkiliy tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liq. Bu esa investitsion jozibadorlikni baholash metodologiyasiga tashkiliy salohiyat, kadrlar malakasi va raqamli boshqaruv ko'rsatkichlarini ham kiritish lozimligini anglatadi[2].

Peter C. Verhoef tomonidan Raqamli texnologiyalardan foydalanishning investitsion jozibadorligini baholash masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bir necha tutash yo'nalishlarda shakllangan. Birinchi yo'nalish raqamli transformatsiyaning mazmuni va bosqichlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalish raqamlashtirishning korxona raqobatbardoshligi, unumdorligi va xalqaro faoliyatiga ta'sirini o'rganadi. Uchinchi yo'nalishda esa raqamli rivojlanishni o'lchovchi indekslar va indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan[3].

## **Muhokama va natijalar.**

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy umumlashtirish, indikatorlar sintezi va integral indekslash usullari qo'llanildi. Axborot bazasi sifatida Jahon bankining Digital Adoption Index materiallari, FAT va TAS yondashuvlari, raqamli texnologiyalar va unumdorlik bo'yicha firmalar kesimidagi empirik tadqiqotlar, OECD'ning SME digitalisation bo'yicha natijalari hamda UNCTAD'ning investitsiya va raqamli hukumat bo'yicha hisobotlari olindi. Mazkur maqolada investitsion jozibadorlikni baholash uchun quyidagi besh blokli model taklif qilinadi:

**1. Raqamli yetuklik bloki (D)** — korxonada raqamli vositalarning biznes-funksiyalar bo'yicha qamrovi, ularning integratsiyasi, ERP/CRM/cloud/e-commerce/data analytics kabi vositalardan foydalanish darajasi, hamda texnologiyaning eng ko'p qo'llanadigan darajasi bilan o'lchanadi. Bu blokni shakllantirishda FAT/TAS yondashuvidagi "business functions" va OECD'ning "digital maturity index" mantiqidan foydalanildi.

**2. Iqtisodiy samaradorlik bloki (E)** — mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi dinamikasi, sotuvlar o'sishi, eksport ulushi, aktivlar aylanishi, raqamlashtirishdan keyingi operatsion foyda va investitsiya qaytimi kabi ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Jahon banki tadqiqoti raqamli biznes yechimlari unumdorlik ustamasini va

ishlab chiqarish omillariga talabni oshirishi mumkinligini ko'rsatgani uchun bu blok modelning markaziy qismi hisoblanadi.

**3. Risk va barqarorlik bloki (R)** — kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi, boshqaruv sifati, uzluksizlik rejasi, texnologik qaramlik, xodimlar malakasi va muvofiqlik risklarini o'z ichiga oladi. FAT yondashuvi boshqaruv sifati va inson kapitalini texnologiya qabul qilinishining asosiy drayverlari sifatida ko'rsatadi, OECD esa kichik bizneslarda raqamli xavfsizlik bo'yicha bo'shliqlar saqlanib qolayotganini ta'kidlaydi.

**4. Bozor va strategik salohiyat bloki (M)** — yangi mijozlarni jalb qilish, bozor geografiyasini kengaytirish, innovatsiya tezligi, mahsulot differensiasiyasi, mijozlar bilan raqamli aloqalar sifati hamda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish darajasini aks ettiradi. OECD so'roviga ko'ra, raqamlashtirishning asosiy foydalari aynan jarayonlarni avtomatlashtirish, mijoz bazasini kengaytirish va savdoni oshirish bilan bog'liq.

**5. Institutsional va infratuzilmaviy muhit bloki (I)** — raqamli to'lovlar, internet sifati, e-hukumat xizmatlari, investitsiya portallari, ro'yxatdan o'tish va ruxsat olish jarayonlarining onlaynligi, hamda tashqi moliyalashtirishga chiqish imkoniyatlarini o'lchaydi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli biznes va investitsiya portallari sifati yaxshilanganda rivojlanayotgan mamlakatlarda FDI oqimi o'rtacha

oshishi mumkin; bu raqamli muhitning investor qaroridagi rolini kuchaytiradi.[4]

Ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun ular 0 dan 1 gacha oraliqda normallashtiriladi. Rag'batlantiruvchi ko'rsatkich uchun:

$$z_{ij} = \frac{x_{ij} - x_{min}}{x_{max} - x_{min}}$$

Cheklovchi ko'rsatkich uchun:

$$z_{ij} = \frac{x_{max} - x_{ij}}{x_{max} - x_{min}}$$

Har bir blok bo'yicha subindeks:

$$S_k = \sum w_i z_i$$

Yakuniy integral indeks esa quyidagicha aniqlanadi:

$$IIJ_{dt} = 0.30D + 0.25E + 0.20R + 0.15M + 0.10I$$

Bu yerda  $IIJ_{dt}$  — raqamli texnologiyalardan foydalanishning investitsion jozibadorlik indeksi. Og'irliklar uch tamoyil asosida belgilandi: investor uchun to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy samara, raqamli foydalanishning real chuqurligi va riskni boshqarish darajasi. Mazkur vaznlar keyingi empirik tadqiqotlarda AHP, entropiya yoki ekspert baholash usullari orqali kalibrlanishi mumkin[5].

Indeks talqini quyidagicha taklif etiladi:

0.00–0.39 — past jozibadorlik;  
 0.40–0.59 — o'rta jozibadorlik;  
 0.60–0.79 — yuqori jozibadorlik;  
 0.80–1.00 — juda yuqori jozibadorlik.

Tadqiqot natijasida investitsion jozibadorlikni baholashda texnologiyaning mavjudligi emas, balki uning biznes-funksiyalar bo'yicha chuqurligi va integratsiyasi hal qiluvchi omil ekani asoslandi. FAT/TAS yondashuvi texnologiyani aynan funksiyalar kesimida o'lchash zarurligini ko'rsatadi; bu esa investor uchun korxonadagi raqamlashtirishning "nominal" emas, "amaliy" darajasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi natija shundaki, taklif etilgan modelda iqtisodiy samaradorlik blokiga yuqori ulush berilishi ilmiy jihatdan asosli. Jahon banki tadqiqotida email va veb-sayt kabi oddiy raqamli yechimlarning o'zi ham korxona unumdorligiga ijobiy ustama berishi, ayrim holatlarda

mehnat va kapital talabini kuchaytirishi aniqlangan. Demak, investor nuqtai nazaridan raqamlashtirish nafaqat xarajat, balki kelajakdagi daromad oqimini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi kerak.

Uchinchi natija sifatida, institutsional muhit investitsion jozibadorlikka tashqi moderator sifatida kiritildi. UNCTAD ma'lumotlari raqamli investitsiya va biznesni yengillashtirish portallari sifati yaxshilangan sari FDI uchun muhit ham yaxshilanishini ko'rsatadi. Bu korxona investitsion jozibadorligini baholashda faqat ichki ko'rsatkichlar emas, balki tashqi raqamli boshqaruv muhitini ham inobatga olish zarurligini anglatadi[6].

To'rtinchi natija — taklif etilgan uslubiyot kichik va o'rta biznes uchun ayniqsa dolzarbdir. OECD ma'lumotlariga ko'ra, respondent KOBlar orasida yuqori darajadagi raqamli yetuklikka erishganlar cheklangan, asosiy foyda avtomatlashtirish va bozorni kengaytirishda ko'rilgan, asosiy to'siqlar esa texnik xizmat xarajatlari, trening uchun vaqt va hardware xarajatlari bo'lib qolgan. Shu sababli investitsion jozibadorlikni baholashda raqamli loyiha qiymati bilan birga uni qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ajratib ko'rsatilishi lozim[7].

Mazkur uslubiyotning amaliy sinovi sifatida shartli korxona uchun quyidagi subindekslar olindi:  $D=0.72$ ,  $E=0.68$ ,  $R=0.70$ ,  $M=0.61$ ,  $I=0.58$ . Hisob-kitobga ko'ra:

$$II_{dt} = 0.30(0.72) + 0.25(0.68) + 0.20(0.70) + 0.15(0.61) + 0.10(0.58) = 0.676$$

Natija 0.676 bo'lib, u korxonaning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha investitsion jozibadorligi yuqori darajada ekanini bildiradi. Bunda asosiy kuchli tomonlar — raqamli integratsiya va iqtisodiy samara; nisbatan zaif tomoni esa tashqi institutsional muhit va bozor salohiyatining to'liq ochilmaganidir.

Taklif etilgan uslubiyot mavjud xalqaro yondashuvlarni yagona tahliliy ramkaga birlashtiradi. DAI raqamli qabul qilishni makro darajada ko'rsatadi, FAT/TAS esa firmadagi texnologik tafovutni biznes-funksiyalar bo'yicha o'lchaydi, UNCTAD investitsion muhitning raqamli komponentini yoritadi, OECD esa KOBlar miqyosida raqamli yetuklik va amaliy to'siqlarni ochib beradi. Mazkur maqoladagi uslubiyot ana shu turli darajadagi yondashuvlarni investitsion tahlil maqsadiga moslashtirgan holda birlashtiradi[8].

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun korxona oddiy raqamli vositalarni joriy etish bilan cheklanmasligi kerak. Investor uchun eng muhim masala — raqamli vositalarning korxona boshqaruvi, moliya, marketing, ta'minot, ishlab chiqarish va mijozlar bilan ishlash jarayonlariga qanchalik chuqur integratsiyalashganidir. OECD ma'lumotlarida “competent”,



“advanced” va “transformative” bosqichlarga ko‘tarilgan korxonalar aynan funksiyalararo integratsiya va ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar bilan ajralib turadi. Shuningdek, raqamlashtirishning investitsion qiymati doimo ijobiy bo‘ladi, degan xulosa ham to‘liq to‘g‘ri emas. Agar texnik xizmat xarajatlari yuqori, trening bazasi sust, kiberxavfsizlik zaif va boshqaruv sifati past bo‘lsa, raqamli loyiha investor uchun riskni kamaytirish o‘rniga oshirishi ham mumkin. Shu jihatdan modeldagi risk-barqarorlik bloki investitsion baholash uchun muhim filtr vazifasini bajaradi[9].

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, u raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog‘laydigan ko‘p omilli integral ko‘rsatkichni taklif etadi. Amaliy ahamiyati esa investorlar, banklar, hududiy hokimiyat organlari, sanoat zonalari ma‘muriyatlari va korxona menejerlari uchun qaror qabul qilishda yagona mezon yaratishidir.

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, raqamli

texnologiyalardan foydalanishning investitsion jozibadorligini baholashda oddiy texnologik mavjudlik ko‘rsatkichi yetarli emas; baholash biznes-funksiyalar bo‘yicha qamrov, integratsiya va foydalanish chuqurligini hisobga olishi lozim. Ikkinchidan, raqamlashtirish investitsion jozibadorlikka asosan uch kanal orqali ta’sir qiladi: iqtisodiy samaradorlikni oshirish, risk va shaffoflikni yaxshilash, bozor hamda institutsional imkoniyatlarni kengaytirish. Uchinchidan, taklif etilgan besh blokli integral indeks korxona, tarmoq va hudud kesimida investitsion jozibadorlikni solishtirma baholash imkonini beradi. To‘rtinchidan, mazkur uslubiyot ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun dolzarb bo‘lib, ularda raqamli transformatsiya darajasi, xarajatlar tuzilmasi va tashqi muhit investor qarorida sezilarli rol o‘ynaydi. Kelgusida mazkur modelni real korxonalar ma‘lumotlari asosida ekonometrik sinovdan o‘tkazish, indikator og‘irliklarini empirik kalibrlash va tarmoqlar bo‘yicha alohida modifikatsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. World Bank. (2016, updated methodology). *Digital Adoption Index*.
2. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). *Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda*. *Journal of Business Research*, 122, 889–901
3. Feliciano-Cestero, M. M., Ameen, N., Kotabe, M., Paul, J., & Signoret, C. (2023). *Is digital transformation threatened? A systematic literature review of the factors influencing firms' digital transformation and internationalization*. *Journal of Business Research*, 157.
4. Cusolito, A. P., Lederman, D., & Peña, J. (2020). *The Effects of Digital-Technology Adoption on Productivity and Factor Demand: Firm-level Evidence from Developing Countries (Policy Research Working Paper 9333)*. World Bank.
5. Cirera, X., Comin, D., & Cruz, M. (2022). *Bridging the Technological Divide: Technology Adoption by Firms in Developing Countries*. World Bank.
6. World Bank. (2023). *Technology Adoption Survey Implementation Manual*.
7. OECD. (2025). *SME Digitalisation for Competitiveness: 2025 OECD D4SME Survey*.
8. OECD. (2021). *The Digital Transformation of SMEs*.
9. UNCTAD. (2024). *World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government*.

**Ingliz tili muharriri:** Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li  
**Sahifalovchi va dizayner:** Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

---

## 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

---

**Manzilimiz:** Toshkent shahar Yakkasaroy tumani  
Shota Rustaveli ko'chasi, 114